



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### SANOAT XODIMLARIDA BIRINCHI MARTA TISH KASALLIKLARINI OLDINI OЛИSH

Masharipova Nasiba Ataboyevna

Xorazm viloyati Toshkent Davlat Tibbiyat Akademiyasi Urganch filiali

Ilmiy rahbar: prof. Xabibova Nazira Nasulloyevna

Stomatologiya fakulteti assistenti

#### Annotatsiya:

Mazkur maqola Xorazm viloyati Shovot tumani Uztekst sanoat ishchi xodimlari orasida tish kasalliklarini birinchi marta oldini olish masalasiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda sanoat ishchilari orasida keng tarqalgan tish kasalliklari, ularning asosiy sabablari va oldini olish yo‘llari ilmiy asosda o‘rganiladi. Ishchi xodimlarning og‘ir sharoitlarda ishlashi, noto‘g‘ri ovqatlanish va shaxsiy gigiyenaga e’tiborsizlik natijasida tish sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Maqolada tish kasalliklarining oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tish kasalliklarini oldini olish, Sanoat ishchilari, Shaxsiy gigiyena, Xorazm viloyat, Shovot tumani, Uztekst sanoati, Tish gigiyenasi, Profilaktika choralar, Sog‘lom turmush tarzi, Ovqatlanish tartibi.

#### Abstract:

This article is devoted to the issue of prevention of dental diseases for the first time among workers of Uztekst industry, Shavot district, Khorezm region. In the study, common dental diseases among industrial workers, their main causes and methods of prevention are studied on a scientific basis. The negative impact on the dental health of the employees as a result of working in difficult conditions, improper nutrition and neglect of personal hygiene is analyzed. Preventive measures and recommendations for the prevention of dental diseases have been developed in the article.

**Keywords:** Prevention of dental diseases, Industrial workers, Personal hygiene, Khorezm region, Shavat district, Uztext industry, Dental hygiene, Preventive measures, Healthy lifestyle, Diet.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X


Website: econferenceseries.com

### Аннотация:

Данная статья впервые посвящена вопросу профилактики стоматологических заболеваний среди работников промышленности «Узтекст» Шавотского района Хорезмской области. В исследовании на научной основе изучены распространенные стоматологические заболевания среди промышленных рабочих, их основные причины и методы профилактики. Проанализировано негативное влияние на стоматологическое здоровье сотрудников в результате работы в тяжелых условиях, неправильного питания и пренебрежения личной гигиеной. В статье разработаны профилактические меры и рекомендации по предупреждению стоматологических заболеваний.

**Ключевые слова:** Профилактика стоматологических заболеваний, Промышленные рабочие, Личная гигиена, Хорезмская область, Шаватский район, Узтекстовая промышленность, Гигиена зубов, Профилактические мероприятия, Здоровый образ жизни, Диета.

Sanoat ishchilari orasida tish kasalliklarini oldini olish masalasi, ayniqsa Xorazm viloyati Shovot tumani Uztekst sanoat ishchi xodimlari orasida ilmiy izlanishlar asosida o‘rganish, muhim va dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Sanoat xodimlari ko‘p hollarda og‘ir sharoitlarda ishlashadi, bu esa tish kasalliklari, xususan karies, gingivit(1-rasm), parodontit kabi kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada Xorazm viloyati Shovot tumani Uztekst sanoat ishchi xodimlarida tish kasalliklarini oldini olish yo‘llari va usullari ilmiy asosda o‘rganiladi.



**1-rasm.** Gingivit Etiologiyasi. Gingivit odatda og‘iz gigienasiga riosa qilmaslik natijasida tishlarda mikroblı karash to‘planishi tufayli yuzaga keladi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Gingivitni davolash.

Kasallikning kechishidan kelib chiqib, tegishli davolash o'tkaziladi: u og'iz bo'shlig'ini professional tozalash yoki jarrohlik yordamida davolash bo'lishi mumkin. Jiddiy yoki uzoq muddatli gingivitda penitsillin, tetratsiklin, doksitsiklin, metronidazol, siprofloksatsin, klindamitsin kabi antibiotiklardan tizimli foydalanish mumkin. Milkdagi og'riqni qoldirish uchun paracetamol yoki ibuprofen buyuriladi. Tish kasalliklari sog'liq uchun katta xavf tug'diradigan omillardan biridir. Sanoat ishchilari orasida bu masala juda dolzarb, chunki ularning ish sharoiti, yomon ovqatlanish odatlari va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, tish kasalliklari xavfini oshiradi. Shovot tumani Uztekst sanoati xodimlari orasida tish kasalliklarining oldini olish masalasida maxsus izlanish olib borish orqali, bu muammoni chuqur o'rghanish imkoniyati paydo bo'ladi. Ushbu izlanish sanoat ishchilari orasida tish sog'lig'ini ta'minlash uchun qanday profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligini aniqlashga yordam beradi.

Ushbu izlanishning asosiy maqsadi Shovot tumani Uztekst sanoat xodimlari orasida tish kasalliklarini oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi vazifalar bajariladi:

- Tish kasalliklarining sanoat xodimlari orasida uchrash tezligi va sabablari aniqlash.
- Sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
- Tish kasalliklarining oldini olish bo'yicha samarali profilaktik usullarni tavsiya etish.

Tadqiqot metodologiyasi bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqichda muayyan tadqiqot usullari qo'llaniladi. Dastlab, Shovot tumani Uztekst sanoati xodimlari orasida anonim so'rov nomasi o'tkazilib, tish kasalliklari tarqalishi va ularning asosiy sabablari o'rghaniladi. Keyin esa, tish kasalliklarini oldini olish bo'yicha mavjud adabiyotlar va ilg'or tajribalar tahlil qilinadi. Olingan natijalar asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tish kasalliklarini oldini olish yo'llari

Sanoat xodimlari orasida tish kasalliklarini oldini olish uchun bir qancha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Ulardan ba'zilari quyidagilar:

- Gigiyena qoidalariga rioya qilish: Har kuni ikki marta tishlarni to'g'ri usulda tozalash, tish ipi va og'izni chayish uchun maxsus suyuqliklardan foydalanish.
- Ovqatlanish ratsionini nazorat qilish: Shakar miqdori yuqori bo'lgan ovqatlarni kamroq iste'mol qilish, ko'proq meva va sabzavotlarni ratsionga kiritish.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- Doimiy tibbiy tekshiruvlar: Har 6 oyda bir marta stomatologga borib, tishlarni tekshirtirib turish.
- Sog'lom turmush tarzini olib borish: Chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilishdan saqlanish, sport bilan shug'ullanish.

Shovot tumani Uztekst sanoat xodimlari orasida tish kasalliklari tarqalishini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik xodimlar tish kasalliklariga moyil bo'lishadi. Bu holatni turli omillar bilan izohlash mumkin: ish joyida gigiyenik sharoitlarning yomonligi, noto'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyenaga e'tibor bermaslik va boshqalar. Ushbu omillarning har biri tish kasalliklarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, sanoat xodimlari orasida tish kasalliklarini oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar yetarli darajada amalga oshirilmayotgani ma'lum bo'ldi. Tish kasalliklarini oldini olish bo'yicha samarali dasturlar joriy etilmagan yoki yetarli darajada amaliyatga tadbiq etilmagan. Shu sababli, sanoat ishchilari orasida tish kasalliklarini oldini olish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish zarur.

### Xulosa va tavsiyalar

Sanoat ishchilari orasida tish kasalliklarini oldini olish bo'yicha izlanishlar, ayniqsa Shovot tumani Uztekst sanoat xodimlari misolida, juda dolzarb va zaruriyidir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tish kasalliklarini oldini olish uchun tizimli yondashuv va profilaktik chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish lozim. Tish gigiyenasiga rioya qilish, doimiy stomatologik tekshiruvlardan o'tish va to'g'ri ovqatlanish tartibini yo'lga qo'yish sanoat xodimlari uchun muhimdir.

Tavsiya etilgan profilaktik chora-tadbirlar Shovot tumani Uztekst sanoat xodimlari orasida tish sog'lig'ini yaxshilashda samarali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, sanoat korxonalari rahbarlari ham xodimlarning sog'lig'iga e'tibor qaratishi va ularni sog'lom turmush tarzi haqida xabardor qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazishi zarur.

Ushbu maqola, Xorazm viloyati Shovot tumani Uztekst sanoat ishchi xodimlari misolida tish kasalliklarini oldini olish masalasini chuqur o'rganish va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida yozilgan. Maqola orqali sanoat xodimlarining sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning muhimligi ta'kidlangan.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### Foydalanimgan adabiyotlar

1. Gingivit — xavf omillari, tasnifi, sabablari, tashxislash, davolash, oldini olish. <https://mymedic.uz/kasalliklar/stomatologiya/gingivit/>
2. Kubayev A.S. Stomatologik kasalliklar profilaktika asoslari. Samarqand davlat tibbiyot universiteti.
3. Malcolm D, Paul E (1961). Erosion of the teeth due to sulphuric acid in the battery industry. Br J Industr Med, 18: 63-9.
4. Dental Diseases of Acid Factory Workers Globally-Narrative Review Article. Article in Iranian Journal of Public Health · February 2014. Pankaj Aapaliya Pacific University India.
5. Shizukuishi S, Hayashi N, Tamagawa H, Hanioka T, Maruyama S, Takeshita T et al. (1998). Life style and periodontal health status of Japanese Factory workers. Ann Periodontol, 3: 303-11.
6. Sanadhya S, Ramesh N, Sharda A, Asawa K, Tak M, Batra M et al. (2013). The Oral Health Status and the Treatment Needs of Salt Workers at Sambhar Lake, Jaipur, India. J Clin Diagn Res, 7: 1782-6.
7. Ramesh N, Sudhanshu S, Sharda A, Asawa K, Tak M, Batra M et al. (2013). Assessment of the Periodontal Status among Kota Stone Workers in Jhalawar, India. J Clin Diagn Res, 7: 1498-1503.
8. Malcolm D, Paul E (1961). Erosion of the teeth due to sulphuric acid in battery industry. Br J Ind Med, 18: 63-9.
9. Bruggen CH (1968). Dental erosion in industry. Br J Ind Med, 25: 249-66.